

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI**

**303-GURUH TALABASI
SALAYEVA RISOLATNING
MUSIQA TARIXI FANIDAN**

YOZGAN

KURS ISHI

MAVZU: M.I.Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasi

Qabul qildi:



**Allayarova N.N.
Musiq ta'limi kafedrasi
o'qituvchisi**

Urganch-2015

Reja:

I. Kirish

II. Asosiy qism

1. M. I. Glinkaning yetuk ijodiy davri

2. Kompozitor umrining oxirgi yillari

3. “Kamarinskaya” simfonik fantaziyasi

4. M. I. Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasi

5. Musiqa tarixi darslarida Mixail Ivanovich Glinka ijodini
o`qitishning ilg`or va zamonaviy uslublari

III. Xulosa

Kirish

Musiqani xalq yaratadi, biz san'atkorlar esa unga faqat sayqal beramiz

M. I. Glinka

Mixail Ivanovich Glinka - rus mumtoz musiqasiga asos solgan buyuk kompozitor. Uning rus musiqasi tarixida tutgan o'rnini Aleksandr Sergeevich Pushkinning rus adabiyotiga qo'shgan hissasi bilan qiyoslash mumkin. Rus tanqidchi - adabiyotshunosi Belinskiyning aytishicha, Glinka, Pushkin singari, «nafis insoniy tuyg'ularni ravon shakl bilan uyg'unlashtira olgan». Shoir va kompozitorning mana shu xususiyati uning ijodini haqiqiy mumtoz badiiy ijod namunasiga aylantirdiki, u chuqur ichki haqiqat va keng mazmunning yorqin, qat'iy va mukammal shakl bilan mushtarakligiga asoslanadi.

Mixail Ivanovich Glinka serqirra iste'dod sohibidir. U o'z ijodida rus xalqi hayotining turli tomonlari va qiyofasini yoritib berdi. Glinkani haqli ravishda rus mumtoz operasi va romansining yaratuvchisi, rus mumtoz simfonizmning asoschisi, deb ayta olamiz. Glinka ijodining yuksak tarixiy ahamiyati shu bilan ham belgilanadiki, unga chuqur milliylik xos bo'lib, ayni paytda, u boshqa xalqlarning ruhiyat olamini ham idrok etish qobiliyatiga ega edi. Xususan, Sharq, Italiya, Ispan mavzulari uning ijodida haqiqiy qiyofada «jonlanadi».¹

Romantizm avj olgan davrda Glinkaning ijodi ham gullab - yashnadi. Unga romantiklarning milliy o'ziga xoslik kontsepsiyasi yaqinroq edi. Shunday bo'lsa -da, lekin Glinkani tom ma'noda romantik, deb bo'lmaydi. Bu uning ajoyib va go'zal «Ruslan va Lyudmila» operasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Romantizmga xos belgilar - shaxsga ortiqcha e'tibor, atrof - muhitga ishonchsizlik bildirish, his - tuyg'ularni ehtirosli va jo'shqin ifodalash unga begona.

U klassisizmning alohida belgilari bo'lgan mahobatli shaklga va ko'tarinki uslubga intilishni o'zida mujassam etdi. Uning ideal obrazlari umumiy manfaatlarni

¹ **Urmanova L.A.** Musika tarixi T., 2011 y. 27,28 bet.

o'z manfaatlaridan ustun qo'yadi. Glinkaning ijodi milliy cheklanganlikdan uzoq bo'lsa - da, u klassisizmga ham, romantizmga ham mansub emas. Lekin u romantizmdan ilg'or fazilatlarni - kundalik hayot go'zalligini ko'ra bilishni meros qilib oldi. Rus musiqasi tarixida birinchilardan bo'lib, u atrofdagi voqelik qiyofasini nafis, ravon va mukammal badiiy shakllarda tasvirlab, haqiqat va go'zallik birligining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarildi.

Mixail Ivanovich Glinka rus musiqasining realizm davrini ochib berdi. U haqqoniylikka va oddiylikka intilib, umumiylik va o'ziga xoslikni aniq musiqiy obrazlarda ifoda etdi. Rossiya musiqashunoslari Glinka ijodini o'rganish asnosida keng miqyosli musiqiy - estetik muammolarni ilgari surdi. Uning ijodini tahlil qilish asosida musiqa to'g'risidagi professional adabiyot paydo bo'ldi. Glinkaning asarlari tarixiy, estetik, musiqiy - ijodiy nuqtayi nazardan o'rganildi. V. F. Odoevskiy, A. N. Serov, V. V. Stasov, G. A. Larosh, P. P. Veymarn, N. F. Findezen, N. D. Kashkin, A. N. Rimskiy - Korsakov, B. V. Asafev, D. D. Shostakovich, V. V. Protopopov, T. N. Livanova va boshqa ko'plab tadqiqotchilar uning ijodi asosida musiqa teatri va musiqa ijrochiligi, opera dramaturgiyasi muammolariga, simfonizm tamoyillariga, musiqa tili xususiyatlariga bag'ishlangan ko'plab tanqidiy maqolalar yozdilar.

Buyuk rus kompozitori Mixail Ivanovich Glinka 1804 yilning 20 mayida Smolensk gubernasining Novospassk qishlog'ida tug'ilgan. U nimjon va kasalmand bola edi.

Glinkaning dastlabki musiqa taassurotlari xalq qo'shiqlari bilan bog'liqdir. Hali bolalik davrlaridanoq Glinka professional musiqa bilan shug'ullanadi: krepostnoy orkestr kontsertlarini tinglaydi, ko'pincha o'zi ham bunday kontsertlarda sozanda sifatida bevosita ishtirok qiladi. U fortepiano va skripka chalishni juda erta boshladi. Glinkaning yoshlik yillari Peterburgda o'tadi.

1818 - 22 yillarda Bosh pedagogika institutining Ulug'vor pansioni (o'quvchilarni yotoqxona, oziq - ovqat, kiyim - bosh bilan ta'minlaydigan o'rta o'quv yurti)da tahsil oladi. Pansiondagi mashg'ulotlar Glinka dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi, chunki bu erda uning o'qituvchilari taraqqiyparvar fikrli olimlar, tarbiyachisi esa oldingi dekabrist, Aleksandr Sergeevich Pushkinning

do'sti V. K. Kyuxelbeker edi. Kyuxelbeker Glinkada xalqqa bo'lgan mehr - muhabbat va xalq uchun har qanday xizmat qilishga tayyor bo'lish his - tuyg'ularini rivojlantirgan.²

Glinka fortepiano bo'yicha Jon Fild (irlandiyalik pianinochi, kompozitor va pedagog) va va Sharl Mayer (nemis pianinochisi, kompozitor va pedagog, Jon Fildning shogirdi)dan dars oladi.

1820 yillarda Glinka Peterburg musiqa olamida pianinochi, ashulachi sifatida shuhrat qozonadi. Uning dastlabki kamer - cholg'u, orkestr, fortepiano va vokal asarlari ham shu davrga tegishlidir. Ayniqsa, Glinkaning alohida, yorqin qobiliyati romans janrida namoyon bo'ladi («Ne iskushay» – “Vasvasaga tushma”, “Bedniy pevets” - “Bechora qo'shiqchi” va boshqa romanslar shular jumlasidandir).

Glinkaning Aleksandr Sergeevich Pushkin, V. A. Jukovskiy, V. F. Odoevskiy kabi oldingi dekabristlar bilan bo'lgan ijodiy aloqalari unda progressiv estetik qarashlarni va ijodiy tamoyillarning shakllanishiga yordam qiladi.

1830 - 34 yillarda Glinka Yevropaning Italiya, Avstriya, Germaniya kabi davlatlari bo'ylab sayohatga chiqadi (Berlinda u Z. Dekin rahbarligida kompozitsiya nazariyasi bo'yicha shug'ullanadi), yirik Evropa markazlarining musiqa hayoti bilan yaqindan tanishadi, Italiyaning belkanto (tovush eshitilishining yengil, chiroyli va kuychanligi bilan, vokal ornamentlarining nafis va virtuoza mukammalligi bilan ajralib turadigan vokal san'ati) san'atini o'rganadi, o'zi ham bir qator asarlar yaratadi.³

M. I. Glinkaningning yetuk ijodiy davri

Kompozitorning yetuk ijodiy davrini 1836 yil yaratilgan “Podshoh uchun berilgan jon” («Jizn za tsarya») operasi ochib beradi. Kompozitor o'zining ikkinchi operasi “Ruslan va Lyudmila” ustida roppa - rosa 6 yil ishladi va 1842 yil yozib tugatdi. Glinka boshqa janrlarda ham yuksak mahorat bilan asarlar yozdi: chunonchi, “Ajib lahzalarni eslayman” (Ya pomnyu chudnoe mgnovene), “Gumon” (Somnenie)

² Vasina V.A.-Grossman. Mixail Ivanovich Glinka, M., 1982 g. 9str.

³Levasheva, A. Kandinskiy «Istoriya russkoy muziki» - 2, 3, 4 tom. M., 1987g. 86 str.

kabi romanslari; “Peterburg bilan xayrlashuv” vokal turkumi; 1839 yil fortepiano uchun, keyinchalik 1856 yil orkestr uchun tahrir qilingan “Vals - fantaziya”; 1840 yil N. V. Kukolnikning “Knyaz Xolmskiy” tragediyasiga yozilgan musiqa va boshqa asarlar shular jumlasidandir.

Glinkaning rus xor musiqasi madaniyati rivojiga qo`shgan hissasi ham kattadir. 1837 - 39 yillarda Glinka Peterburg saroy qo`shiqchilar kapellasida kapelmeyster vazifasida xizmat qiladi. U ijrochi va pedagog sifatida qo`shiqchilik san`atiga katta e`tibor beradi. Glinka S. S. Gulak -Artemovskiy, keyinchalik esa D. M. Leonova kabi qo`shiqchilar bilan mashg`ulotlar olib boradi; “Ivan Susanin” operasidagi Susanin va Vanya rolining birinchi ijrochilari O. A. Petrov va A. Ya. Petrovalar uning maslahatlaridan foydalanganlar.

1844 - 47 yillari Glinka Frantsiya va Ispaniyada bo`lgan. Bu safar taaassurotlari asosida “Ispancha uvertyuralar” – 1845 yil “Aragon xotasi” va 1848 yil “Madrid oqshomlari” yaratildi. 1848 yil Varshavada orkestr uchun “Kamarinskiya” nomli “rus skertsosi” yozilgan.

1850 yillarda Glinka atrofiga A. N. Serov, V. V. Stasov, Aleksandr Sergeevich Dargomijskiy, Miliy Alekseevich Balakirevlar kabi hamfikir, Glinka san`atining targ`ibotchilari birlashadilar. Bu yillarda “Taras Bulba” simfoniyasini, “Ikki erli xotin” operalarini (amalga oshmagan) yaratish niyatlari paydo bo`ladi.⁴

1856 yil Berlinda yashagan Glinka asl rus kontrapunktini yaratish maqsadida eski usta kompozitorlarning polifoniyasini va bir vaqtning o`zida “bayroqchali kuylash” asarlarida rus polifoniyasining asoslarini ko`rgan Glinka bu san`atni ham chuqur o`rganadi. Glinkaning bu ezgu g`oyalarini keyinchalik rus kompozitorlari Sergey Ivanovich Taneyev va Sergey Vasilevich Raxmaninov va boshqalar rivojlantiradilar.

Glinkaning ijodi - milliy rus musiqa madaniyatida qudratli ko`tarilish davrining yorqin guvohidir. Rus adabiyotida Pushkinga o`xshab, Glinka rus musiqasi tarixida yangi tarixiy davrni boshlovchisi sifatida maydonga chiqadi: uning asarlari

⁴ 68 Glinka M.I. Chelovek. Sobitiya. Vremya. M., 1988 g. 54 str.

rus musiqa madaniyatini umummilliy va umumjahon ahamiyatini belgilab beradi. Glinkaning ijodi chuqur milliy xaraktyerga ega bo'lib, u rus xalq qo'shiqchiligi negizida o'sib etdi, qadimiy rus xor san'ati an'alarini o'zida singdirdi va XVIII - XIX asr rus kompozitorlik maktabi muvaffaqiyatlari unda yangidan amalga oshirildi. Rus mumtoz musiqasi asoschisi Glinka musiqa xalqchilligining yangi tushunchalarini belgilab beradi. Rus musiqa ijodiyotining o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini umumlashtirib, u o'zining opera va simfonik asarlarida xalq qahramonligi dunyosini, dostonchilik eposi, xalq ertaklarining mazmun va ma'nolarini ochib beradi.

Glinka o'zidan oldingi zamondoshlari Aleksandr Aleksandrovich Alyabev, A. N. Verstovskiy, Aleksandr Lvovich Gurilev va boshqalar singari na faqat shahar folkloriga balki, o'z asarlarida qadimiy lادلardan, xalq musiqasining o'ziga xos ovoz yo'nalmalari va ritmlaridan foydalanib, qadimiy dehqon qo'shiqlariga ham e'tibor qaratadi.

Bir vaqtning o'zida uning ijodi taraqqiyparvar G'arbiy Evropa musiqa madaniyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Glinka o'z ijodida Vena mumtoz maktabi (XVIII asrning 2-yarmi – XIX asrning boshlarida Evropa musiqa madaniyatidagi badiiy yo'nalish) an'alarini, ayniqsa, Volfgan Amadey Motsart va Lyudvig van Betxoven an'alarini singdirgan, u turlicha Evropa milliy maktablarining romantiklari muvaffaqiyatlaridan ham xabardor bo'lgan.

Glinka estetikasining belgilovchi omili – Pushkin davri rus realistik san'atining taraqqiyparvar badiiy yo'nalishi edi. O'zida haqiqat va go'zallikni birlashtirgan “haqiqat poeziyasi” kabi Pushkin tamoyili kompozitor ijodida o'zining tugal ifodasini topdi.

Glinka ijodida deyarli barcha musiqiy janrlar, birinchi navbatda esa opera janri aks etgan. “Ivan Susanin” va “Ruslan va Lyudmila” kabi operalar rus operasining klassik davrini ochib berdi va uning boshlanishini xalq musiqa dramasi, ertak - opera va doston - opera kabi asosiy yo'nalishlarga qo'yib berdi. Glinkaning yangiliklarga intilishi, boshqacha aytganda uning novatorligi musiqiy dramaturgiya sohasida ham yaqqol ko'zga tashlandi: rus musiqasida u birinchilardan bo'lib operada so'zlashuv dialoglaridan tamomila voz kechib, uni to'liq simfonik rivojlantirish usulini o'ylab

topdi. Uning ikkala operasi uchun ham xalqparvar - qahramonlik yo`nalish, keng epik - vazmin tuzilish, hashamatli xor sahnalari xosdir.

Kompozitor umrining oxirgi yillari

Umrining oxirgi yillarini Glinka goh Peterburgda, goh Varshavada, Parij va Berlinda o`tkazadi. Bu yillari uning eng yaqin, vafodor do`sti - kichik singlisi Lyudmila Ivanovna Shestakova edi. Lyudmila Ivanovna Shestakova akasining o`limidan keyin butun umrini uning ijodini targ`ib qilishga bag`ishlaydi. U Glinka ishining davomchilari bo`lgan “Qudratli to`da” kompozitorlarinig yaqin do`sti bo`lib qoladi.⁵

Mixail Ivanovich Glinka 1857 yil Berlinda vafot etadi. Keyinchalik uning xokini Peterburgga olib kelishib, Aleksandro -Nevskiy lavrasi qabristoniga dafn etishadi.

Mixail Ivanovich Glinkaning “Ivan Susanin” operasi – qahramonlik ruhida yozilgan xalq musiqali dramasidir. Rus sahnasida birinchi marta so`zlashuv dialoglarisiz, to`xtovsiz musiqiy rivojlantirishga asoslangan vatan operasi qo`yilgan edi.

Operaning mazmuni:

1612 yil Rossiya erlaridan polyak qo`shinlari haydab chiqarilgan bo`lishiga qaramasdan, uning ayrim to`dalari hali ham mamlakat bo`ylab kezib yurgan edi. Bu to`dalardan biri Kostromolik dehqon Ivan Osipovich Susanin yashaydigan Domnino qishlog`iga adashib kelib qoladi. Susanin ularga yo`l ko`rsatishga rozilik beradi, ammo u to`dani o`tib bo`lmas changalzorlarga va botqoqliklarga etaklab keladi va o`zi ham shu erda halok bo`ladi.

Oddiy dehqonning qahramonligi dekabrist - shoir K. Rileevni ilhomlantiradi va unga bag`ishlab “Ivan Susanin” dumasini (xalq eposi janrlaridan biri) yozadi. I. Rileev va Glinka ham oddiy dehqonning qahramonlik harakatlarida ona er ozodligi

⁵ **Urmanova L.A.** Musika tarixi T., 2011 y. 42 bet.

uchun jonini fido qilishga tayyor butun rus xalqining kuchi va vatanparvarligini ko`radilar.

Glinkaning simfonik orkestr uchun yaratgan eng muhim asarlari – “Kamarinskiya” fantaziyasi, “Aragon xotasi” va “Madrid oqshomlari” kabi ispancha uvertyuralari va “Vals - fantaziya”dir. Simfonik orkestrlar repertuariga ko`pincha Glinkaning ikkala operasidagi uvertyuralar shuningdek, “Knyaz Xolmskiy” fojeasiga yozilgan ajoyib musiqa ham kiritiladi.

Opera ijodi kabi simfonik ijodda ham Glinka o`zining badiiy tamoyillariga sodiq qoladi. Uning orkestr uchun yozgan barcha asarlari tinglovchilarning keng qatlamiga tushunarli, yuksak badiiy va shakl jihatdan mukammaldir. Glinka o`z asarlarini oddiy tinglovchiga va professional musiqachilarga teng ravishda yaratar ekan, zamonaviy garmonik tilning ifodaviy vositalari va yangi orkestr bo`yoqlarini obrazlarning oddiyligi va tushunarliyligi bilan almashlab turish mumkin deb hisoblagan. Oxirgi yillarda yaratgan simfonik asarlarda u doimo xalq qo`shiqlari mavzusiga suyangani tasodifiy hol emas. Ammo, Glinka bu mavzularni to`g`ridan-to`g`ri ko`chirmasdan, ularni keng rivojlantirgan va shular asosida o`ziga xos, go`zal musiqiy obrazlarga va chiroyli orkestrlashtirishga ega bo`lgan asarlar yaratdi.

“Kamarinskaya” simfonik fantaziyasi

“Kamarinskaya” simfonik fantaziyasi (1848) navbatma - navbat ishlab chiqilgan ikkita rus xalq mavzulariga qilingan variatsiyalardan iborat. Bu mavzular qarama-qashi xaraktyerga ega. Ulardan birinchisi – kulrang g`ozlar – (“kuyovning yoqimsiz qarindoshlari”) cho`qilayotgan va chimchilayotgan oqqush – (“kelin”) - haqida hikoya qiluvchi, “Iz - za gor, gor visokix” (Tog`lar... baland tog`lar ortidan) nomli keng va kuychan to`y qo`shig`idir:



Ikkinchi mavzu - “Kamarinskaya” nomli sho`x rus raqs kuyi:



Birinchi qo`shiqning kuyi o`ychan-lirik xarakterda. Kuy variatsiyalanganda u rus kuychan qo`shiqlariga o`xshagan yangi - yangi jo`r bo`luvchi ovozlari bilan qo`shilib, o`zgarmasdan qoladi. Mavzuni rivojlantirishda, kompozitor cho`ponlar nayi, jaleyka va surnaychalarga o`xshagan xalq puflama asboblari tovushlariga yaqin bo`lgan yog`och puflama asboblardan chiroyli foydalanadi.


“Kamarinskaya”ning kuyi tez va quvnoqdir. Bu kuyni variatsiyalashda Glinka rus balalaykasini eslatuvchi torli asboblari pitstsikatosini qo`llaydi. Variatsiyalanganda raqs kuyi jo`r bo`luvchi ovozlarga ega bo`lib, ba`zida o`z ko`rinishini tamomila o`zgartirib ham yuboradi. Shunday qilib, bir qator variatsiyalardan keyin, tez raqs harakati va uzoq - yuluq xarakteriga qaramasdan, kuychan to`y qo`shiqlari mavzusiga o`xshagan kuy paydo bo`ladi:



“Kamarinskaya”da Glinka milliy xarakter xususiyatlarini tadbiq qildi, dadil va yorqin chizgilar bilan rus xalqining bayramona turmushini chizib berdi. Sekin tempdagi lirik qo`shiqlarni keyinchalik quvnoq, jo`shqin qo`shiqlar bilan qarama-qarshi qo`yilish hollarini xalq xor ijrochiligida tez-tez uchratish mumkin. Bu jihatdan Glinkaning xalq ijrochiligiga xos bo`lgan kuyni yordamchi ovozlari bilan va variatsion tarzda rivojlantirishni ustalik bilan qo`llaganligi juda muhimdir.

Keyinchalik bu barcha xususiyatlar boshqa rus kompozitorlari tomonidan ham rivojlantirildi. Shuni uchun ham Petr Ilich Chaykovskiy “Kamarinskaya” haqida - “xuddi barcha mag`iz yong`oq ichida joylashgan kabi rus simfonik musiqasi to`la “Kamarinskaya”da mujassamdir”, - degan.

“Vals - fantaziya” – Glinkaing shoirona lirik asarlaridan biridir. Oldin u kichik fortepiano pesasi edi. Keyinchalik u kengaytirildi va orkestrlashtirildi. O`limidan sal oldin (1856) kompozitor uni qayta ishlab, oddiy, maishiy pesani mahorat jihatidan mukammal simfonik fantaziyaga aylantirdi. U dilkash, mayin mavzuga asoslangan. Uchtonlik bo`yicha pastlama harakat tufayli bu bu o`ychan-mungli kuy keskin va shiddatli eshitiladi. Unda mavzu tuzilishi ham o`ziga xos: g`arbiy evropa valslaridagi kabi “kvadrat” to`rt taktli emas, balki rus xalq qo`shiqlarida biz ko`p kuzatadigan uch taktli toq frazalar. Mavzuning bunday toq tarkibi Glinka kuyiga parvozlilik va shitoblilik baxsh etadi:



Asosiy vals mavzusiga xarakter jihatidan turlicha; goh yorqin va latofatli, goh hayajonli - dramatik lahzalar qarama - qarshi qo`yilgan. Asosiy mavzu xuddi rondo shaklining naqarotidek bir necha marta takrorlanib keladi. Bu asarning instrumentovkasi hayron qolarli darajada bejirimdir. Torli guruhning juda ko`p ishlatilishi asar eshitilishiga yengillilik, parvozlilik, tiniqlilik, orzuning betakror jozibadorligini baxsh etadi. Rus musiqasida birinchi marta maishiy raqs asosida ichki kechinmalarning turlicha ko`rinishlarini ifodalovchi rivojlangan simfonik asar kelib chiqqan.

“Vals - fantaziya”da, “Kamarinskaya”da va ikkala operaning balet sahnalarida Glinka simfonik musiqaning maishiy raqslardan o`sib chiqqan mangu o`lmas-go`zal

obrazlarini yaratgan.

Uning tashabbusini rus kompozitorlaridan Chaykovskiy, Balakirev, Borodin, Rimskiy - Korsakov, Glazunov va ko'pgina keyingi davrdagi kompozitorlar davom ettirdilar.⁶

Glinkaning romanslari va qo'shiqlari – rus klassik musiqasining faxridir. Kompozitor ularni butun hayoti davomida yozib kelgan. Glinkaning lirik romanslari – uning o'ziga xos ko'ngil e'tirofi, yurak iqrorida. Ularning ayrimlarida rus tabiati va turmushi mazaralari aks ettirilgan. Glinka o'z romanslarida o'zidan oldin o'tgan va o'z zamondoshlari – maishiy romans mualliflari tomonidan qanday yaxshi asarlar yaratilgan bo'lsa, ularni umumlashtirgan va rivojlantirgan. Glinkaning o'zi vokal ijrochiligining ajoyib ustasi bo'lgan va inson ovozi imkoniyatlarini juda yaxshi bilgan. Uning romans janrini yuksak mukammallikkacha yetkaza olganligi ham hech ajablanarli emas.

Glinka romanslaridagi samimiylilik va oddiylilik, his-tuyg'u va kayfiyatni ifodalashda soddalik va bosiqlik, shaklning klassik uyg'unligi va mutanosibligi, quyning go'zalligi, matn mazmunini doimo ifodali, haqqoniy yetkazilishi va rang - barang garmoniyasi kabi barcha xususiyatlar odamni rom qiladi.

Glinkaning romanslari va qo'shiqlari ichida turli-tuman janrlarini: ta'sirli hayotiy romanslar bo'lmish “rus qo'shiq”lari (“Bedniy pevets”)dan tortib, dramatik balladalar, qo'shiq-hikoyalar (“Nochnoy smotr”)gacha, hayotiy-quvnoq ziyofat va “yo'l” qo'shiqlaridan tortib, “lirik “ suv ustidagi qo'shiq” – barkarolalargacha uchratish mumkin. Uning vals, polonez, ispan bolerosi va nihoyat marsh ritmidagi qo'shiq -raqs (“Prosti, korabl vzmaxnul krilom”)lari o'ziga xos betakrordir. Shuningdek, Glinka romanslarining xarakterli xususiyati ularda vokal va fortepiano partiyalarining garmonik birligidir.

Glinka vokal qo'shiqchiligi rus maktabining asoschisidir, uning romanslari – go'zallik va mukammallikning tuganmas bulog'idir. Bu buloqdan barcha keyingi rus kompozitorlari bahramand bo'lganlar.

⁶ Levasheva, A. Kandinskiy «Istoriya russkoy muziki» - 2, 3, 4 tom. M., 1987g. 97 str

Glinka o'z zamonasidagi shoirlardan Baratinskiy, Jukavskiy, Delvig, Pushkin she'rlariga romanslar yozgan. Uning ko'pchilik romanslari yaqin do'stlari masalan, Kukolnik so'zlariga yozilgan. 1840 yilda kompozitor bu shoirning she'rlariga "Peterburg bilan xayrlashuv" nomli vokal turkumini yaratgan. Bu turkumda "To'rg'ay" (Javoronok) va "Hamroh qo'shiq" (Poputnaya pesnya) kabilar bor. "To'rg'ay"- tabiiy va oddiy, yorqin g'amginlik bilan bo'yalgan, yengil quyulib turadigan va kuychan kuyli, dilkash va o'ychan qo'shiqdir:



Qo'shiqning fortepiano partiyasida tekis rus tabiati – cheksiz uzoqliklar, dalalar va maysa va o't novdalari shamol bo'ylab silkinib turuvchi maysazorlar ifodali tarzda yaratilgan. Qo'shiqchi kuylashni boshlamasdan oldin to'rg'ayning sayrashi quloqqa chalinadi.

"Hamroh qo'shiq" (Poputnaya pesnya) – yorqin va hayotiy quvnoq lirika namunasidir. Unda barcha tuyg'ular – harakat va uzilish, uchrashuvga bo'lgan shiddatli va iliq intiqlik, sabrsizlik, yurakning hayojonli urib turishi aks ettirilgan. Qo'shiqning o'zida ham barcha narsa shu kayfiyatga bo'ysundirilgan:



Fortepiano partiyasida dadil va ravon, aniq ritm bilan tez yurib borayotgan poezdning harakati, g'ildiraklarning duk - duki va deraza orqali ko'rinuvchi o'zgarchan manzaralar aks ettirilgan. Har bir misraning boshida eshitiladigan jonli va to'liq akkord ham xarakterlidir, shu akkorddan shiddat bilan oldinga intiluvchi kuy

boshlanib ketadi. Keyinchalik esa u g'amli kutish taassurotlarini beruvchi keng va ravon kuy bilan almashadi:



“Ajib lahzalarni eslayman” (Ya pomnyu chudnoe mgnovene). Glinkaning vokal lirikasida Pushkin she’rlariga yozilgan romanslar muhim o’rin tutadi. Ular orasida shoir va kompozitorning ulug’ligi omuxtalishib ketgan “Ajib lahzalarni eslayman” romansi - rus vokal lirikasining marvarididir.⁷

Romansning uch qismli shakli asar qahramoni ichki dunyosining uchta muhim davri aks etgan she’r mazmuniga - dastlabki uchrashuv, sevgilisidan ayriliq azobi va yangidan ro’y bergan uchrashuv sevinchiga muvofiqdir. Romansning kuyi o’zining ravonligi va mayin nazokati bilan odamni ta’sirlantiradi.



Romansning tashvishli o’rta qismi aniq qarama-qarshilikka ega. Bu qismda musiqa rechitativ-deklamatsion va keskin xaraktyerga ega. Uchinchi qismda oldingi

⁷ Kozlova N.P “Russkaya muzikalnaya literatura”.: Uchebnik dlya DMSH – M., 2012g. 73 str

yorqin kuy qayta eshitilsada, endi u quvnoq-hayojonli, jo'r qismi esa harakatchan va iztirobli bo'lib qoladi.

Ushbu romans Glinka ijodining yetuk davrida yaratilgan, shuning uchun ham kompozitorning mahorati unda mukammaldir. Pushkin va Glinkagacha hech kim tomonidan va hech qachon inson tuyg'ularining go'zalligi bu qadar yuqoriga ko'tarilgan emas.

Musiqqa tarixi darslarida Mixail Ivanovich Glinka ijodini o'qitishning ilg'or va zamonaviy uslublari

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini san'at kolleji musiqqa tarixi dars jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi - talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rnatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Musiqqa tarixi dars jarayonini o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullari yordamida amalga oshirish uchun o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Pedagogik mahoratga ega bo'lish uchun esa musiqqa tarixi o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlashi kerak bo'ladi. Ilg'or va zamonaviy uslublarni qo'llash uchun o'qituvchi interfaol ta'lim jarayoniga zarur bo'lgan g'oyalar va harakatlar majmusini tuzishga hamda o'qitishning ijodiy rivojlanish tartibida ishlashga o'rganishi lozim. Muammoli - izlanuvchanlik uslublarni o'zlashtirish - talabalarning ijodiy - izlanuvchanlik faoliyatini tashkillashtirish asosi, binobarin interfaol ta'limning ham asosidir.

Ilg'or va zamonaviy uslublarni qo'llash bilan bog'liq ko'pgina tashkiliy - uslubiy muammolar ham bor, bugungi kunda ularni, albatta, e'tiborga olish lozim bo'ladi. Bular - san'at kolleji musiqqa tarixi fani o'qituvchisining kasbiy salohiyati va metodik mahorati, poyindor (fundamental) bilimi, o'quv- metodik ta'minlanganligi, malakasini oshirishi va jahon pedagogik tajribasidan xabardorligi, fuqarolik

mas'uliyati, axborot olamining benihoya kengayib borayotganligi, musiqiy muassasalarining moddiy va ma'rifiy imkoniyatlari, bilim va kasb- hunar egallovchilar kontingentning dunyoqarash ko'rsatkichlari bilan bog'liq masalalardir.⁸

Bugun san'at kolleji musiqa tarixi dars jarayonini davr talablariga mos ravishda amalga oshirishning eng zarur omili bo'lgan zamonaviy darsning har biri o'quvchi - yoshlar uchun o'ziga xos quvonch doirasiga, har bir ta'lim dargohi esa shodlik maskaniga aylanishi lozim. Xususan, musiqa tarixi darsiga ishonch bilan kelib, o'z o'qituvchisini alohida hurmat va e'zoz bilan kutib olish tuyg'usini shakllantirish bugungi kun musiqa ta'lim -tarbiyasi jarayonining asosiy mezonlaridandir. O'qituvchi dars paytida o'quvchilarga to'g'ri yo'l - yo'riq berib tursa, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan talaba-o'quvchilar faol ishtirokchiga aylanganini o'zlari bilmay qoladilar.

Bu jarayon o'qituvchi faoliyati va uslubiyatining turli ko'rinishlari orqali amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyat shakllari o'qituvchining talablar asosida tashkil qilingan ma'ruza, amaliy mashg'ulot, muloqat - munozara darslarida namoyon bo'ladi.

Musiqa tarixi darslarini o'qitishning ilg'or va zamonaviy uslublaridan foydalanish dars samaradorligini oshirish yo'llaridan biri. Mixail Ivanovich Glinkaning ijodi mavzusini o'qitishda prezentatsiyalar, multimedia, kompozitor asarlaridan yaxshi ijro namunalari, mavzuga bag'ishlangan adabiyotlarning taxlili, tarqatma materiallar, muammoli vaziyatlar yuzasidan muammoli savollar zanjiri, kompozitor hayotdagi rasmlar darsning qiziqarli va mazmunli o'tishga erdam beradi.

Ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning juda ko'p uslublari mavjud: Aqliy hujum, Kichik guruhlarda ishlash, Keys – stadi», Zig-zag, Tarmoqlar (Klaster), Fikrlar hujumi, 6x6x6, Diagramma vena, Bumenrang va xakozo. Ushbu metodlari musiqa tarixi darsini yanada takomillashtirishga yordam berib, darsga yangicha usullar asosida yondashuvni ta'minlaydi. Zamonaviy darsni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay,

⁸ **5. Karimova D.A.**..Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. 2008 y. 63 bet.

qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida Mixail Ivanovich Glinkaning ijodi mavzu bo'yicha muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish, talaba - o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash musiqa tarixi o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Har bir darsning alohida xususiyati mavjud. San'at kollejlari musiqa tarixi fani o'qituvchisining ham o'ziga xos sirlari bo'ladi. Musiqaga muhabbat bilan qarash, yaxshi sozanda va yaxshi san'atkor bo'lish, yaxshi ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro etish, o'quvchilarga bor bilimlarini berishga intilish va ishga sidqidildan berilgan inson ish jarayonidagi hayoti bilan yashaydi.

O'qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi ham kerak. Doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchi pedagogik mahoratini egallay boshlaydi. U vaziyatni (situatsiyani) baholashga, o'quvchilarning ichki tuyg'ularini sezishga o'rganadi.⁹

Musiqa tarixi darslarida Mixail Ivanovich Glinka ijodini o'qitishning inovatsion texnologiyalari pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritadi. Darsni qiziqarli va mazmunli o'tish uchun kompyuter texnikasining juda katta imkoniyatlari mavjuddir, misol uchun mavzuga taalluqli internet tarmoqlaridan dars vaqtida yoki darsdan tashqari, o'zlariga kerakli ma'lumotlarni: ilmiy maqollar, metodik qo'llanmalar, prezentatsiyalar, video filmlar, nota materiallari, rasmlar, Mixail Ivanovich Glinka asarlaridan parcha ijro namunalarini olishlari mumkin.

Ushbu darsda ishlatilgan ilg'or va zamonaviy uslublar – o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanish, jamoa bo'lib fikrlash, pedagog va o'quvchi - talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishni o'rgatadi. Mixail Ivanovich Glinka ijodini o'rganishda ilg'or va zamonaviy uslublar o'quvchi - talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy

⁹ **Karimova D.A.**..Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. 2008 y. 28 bet.

faoliyatlarini samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Shuning uchun san'at kolejlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda ilg'or va zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi - talablarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Darsda musiqa tarixi o'qituvchisining vazifasi - o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars takomillashtirilganligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr - mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish demakdir. Ushbu ilg'or va zamonaviy uslublar musiqa tarixi darsida o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu (axborot)ni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi. O'qituvchi faqat fasilitator (yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Eng muhimi, ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish shiori ostida va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bahonasida tarix va ijtimoiy hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tib va yashab kelayotgan an'anaviy o'qitish metodikasi, metod va usullaridan voz kechib yubormaslikdir.

M. I. Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasi

1842 yilda kompozitor o'zining ikkinchi operasi — «Ruslan va Lyudmila»ni yozib tugatdi.

«Ruslan va Lyudmila» operasining qisqacha mazmuni. Voqea Kievda bo'lib o'tadi.

Knyaz' Svyatozar sizni Lyudmilaning to'yini o'tkazmoqda. Mehmonlar orasida

Lyudmila visoliga yetisholmagan xon Ratmir va pahlavon Farlaf ham bor. To'satdan chaqmoq bo'lib, knyaz mehmonxonasi qorong'ilikka g'arq bo'ladi. Oydinlashganda mehmonlar Lyudmilaning g'oyib bo'lganligini sezib qoladilar. Baxteiz Svyatozar kimda-kim Lyudmilani topib, Kievga olib kelsa, uni o'shanga nikoh qilib berishga va'da beradi. Lyudmilani topish uchun Ruslan, Ratmir va Farlaf uzoq va xatarli safarga o'tlanadilar. Ularning yo'lida xilma-xil sarguzashtlar sodir bo'ladi. Ruslan yo'lda saxiy sehrGAR Finni uchratadi. Finn unga Lyudmilani jodugar Chernomor tomonidan o'g'irlanganligini va knyaginyani axtarib topishda unga yordam berishligini aytadi. Ruslan tog'u-dashtlar, cho'l-u biyobonlarni kezib ko'p yuradi, nihoyat tikonzor-u changalzorga aylangan jang maydoniga yetib keladi. Bu yerda u bahaybat kalla bilan jang qiladi, uni yengadi va ostiga yashirib qo'yilgan sehrli qilichni oladi.

Qora niyatli, sehrGAR Naina Ratmir bilan Ruslanni o'z qarorgohiga aldab olib kiradi. Har ikkala pahlavon bu sehrli joydan chiqolmay umrbod qolib ketishlaridan qayg'uradilar, ammo Finn yana ularga yordam qiladi. Pahlavonlar Lyudmilani izlashni davom ettiradilar. Bu vaqtda Lyudmila Chernomorning bog'ida qayg'urib yotardi.

Ruslan paydo bo'ladi va Chernomorni yakkama-yakka olishuvga chaqiradi. Jodugar Lyudmilani mangu uxlatadi va Ruslan bilan jang boshlaydi..

Ruslan g'olib chiqadi, ammo Lyudmilani uyg'otolmaydi, uning barcha urinishlari zoya ketadi. Faqat Finn bergan sehrli uzuk qizni uyg'otadi. Tanganali xor sadolari Ruslan bilan Lyudmilani olqishlaydi.

«Ruslan va Lyudmila» operasi epik-ertak opera namunalari-dan hisoblanadi.. Glinka o'z qahramonlari obrazlarini ifodalash uchun chuqur mazmunli va yorqin ifodali musiqa yaratishga muvaffaq bo'ldi.

«Ruslan va Lyudmila» operasining musiqaviy-badiiy afzalliklari Glinka ijodiy iste'dodining yangicha uslubining yutuqlari Peterburg aristokratlar jamiyatiga tushunarli bo'lmadi: Mana shu sababdan ham opera nihoyat sovuqqonlik bilan kutib olindi.

«Glinkaga bu muvaffaqiyatsizlik qattiq ta'sir qildi. U 1844-1847 yillarda Fransiya va Italiyada bo'ldi va xalq-raqs termalariga asoslangan «Aragon xotasi» nomli ajoyib simfonik uvertyura yaratdi.

Glinka hayotining so'nggi yillarida «Kamarinskaya» simfonik fantaziyani yozdi. Bu mashhur asarida ikkita xalq qo'shig'i: sekin va cho'zib aytiladigan to'y qo'shig'i «Baland tog' orqasida» va quvnoq, tez aytiladigan raqs qo'shig'i «Kamarinskaya» dan ustalik bilan foydalandi. Glinka 1857 yilda vafot etdi.

M. I. Glinka o'z opera, simfonik asarlari va romanslarida rus musiqasining qaysi yo'l bilan shakllanishini va rivojlanishini ko'rsatib berdi.

Glynkaning ijodiy merosi ikkita opera, dramatik spektakllarga musiqalar, vokal-simfonik asarlar, cholg'u ansambllari, sonata, pesa, xorlar, 80 dan ortiq ashula, qo'shiq, romans va hokazolardan iboratdir.



M. I. GLINKA

Buyuk rus kompozitori. Rus milliy klassik musiqa asoschisi. Yozgan asarlari: Birinchi rus operasi «Ivan Susanin» 1834. Ertak opera «Ruslan va Lyudmila» 1840. Simfonik uvertyuralar «Vals - fantaziya» «Aragon xotasi», «Kamarincha» va boshqalar shular jumlasidandir.

Mixail Ivanovich Glinka 1804 yilda Smolensk gubernasining Novospassk qishloq`ida tug`ildi. Bo`lajak kompozitorning bolalik yillari dvoryanlar xonadonida o`tdi. Unga dehqonlar hayoti yaqin, dehqonlar qo`shiq`i hamrox edi, qishloq manzarasi esa uni doim maftun etardi, shu sababdan ham ular kompozitor hayotida chuqur iz qoldirdi.

Yosh Glinkada musiqa qobiliyatining rivojlanishida, krepostnoy musiqachilar orkestri juda katta rol o`ynadi. U mana shu orkestr tufayli orkestr asboblari, xalq qushiq`lari va chet el kompozitorlari asarlari bilan tanishishga muyassar bo`lgan edi.

Glinka Pedagogika instituti qoshidagi pansionda tarbiyalandi va dunyoviy ma`lumot oldi. Glinka pansionda o`qigan davrida ham musiqa bilan shug`ullanishini to`xtatmadi: fortepianodan xususiy darslar oldi, muzika nazariyasini, o`rgandi, muzika ijodi sohasida qobiliyatini sinab ko`rdi va oradan ko`p vaqt o`tmasdan, talantli pianinochi va yosh kompozitor sifatida shuhrat qozondi.

Pansionni tugatgach, u yosh musiqa ishqibozlari gruppasi bilan yaqinlashdi, bu munosabat musiqa faoliyatining yanada rivojlanishiga imkon berdi.

Uning«Qiyname meni», «Oh, go`zal qiz» singari vokal asarlari mana shu davrda yozilgan edi.

Glinka zamondosh kompozitorlar ijodini diqqat bilan kuzatib bordi, rus maishiy muzika asarlari namunalarini tingladi. Glinkaning Kavkazga borishi unda boshqa xalqlar milliy san`atiga hurmat - ehtirom bilan qarash hissini uyq`otdi.

1830 yilda Glinka musiqa ma`lumotini yanada oshirish maqsadida chet elga boradi, to`rt yil davomida o`tqazgan sayohatining uch

yili Italiyada o`tdi. Glinka Italiya opera san'atini sinchiklab o`rgandi.

Glinka Peterburgga qaytib kelgaidan keyin opera uchun juda ko`p sujetlar axtardi va pirovardida «Ivan Susanin» sujetiga opera yozishni ma'qul deb topdi. «Ivan Susanin» operasi 1836 yilda birinchi marta sahnaga qo'yilgan edi.

1842 yilda kompozitor o`zining ikkinchi operasi — «Ruslan va Lyudmila»ni yozib tugatdi. U 1844 - 1847 yillarda Frantsiya va Italiyada bo`ldi va halq - raqs temalariga asoslangan «Aragon xotasi» nomli ajoyib simfonik uvertyra yaratdi.

Glinka hayotining so`nggi yillarida «Kamarinskaya» simfonik fantaziyasini yozdi. Glinka 1857 yilda vafot etdi.



M. I. Glinka ijod ustida



M. I. Glinka haykali



Sankt – Peterburg konservatoriyasi va Mariniysk teatri maydonida Glinkaga o`rnatilgan haykal.



[Ya. F. Yanenko](#) mo'yqalamiga mansub M. Glinka portreti. 1840 yillar



Mixail Glinka, 1852 йил



[Smolenskda](#) Glinkaga o`rnatilgan haykal.



[Berlinda](#) Glinka xotirasiga o`rnatilgan xotira taxtasi.



V. E. Artamonovning pochta markasidagi «[A. S. Pushkin](#) va [V. A. Jukovskiy](#) M. I. Glinka uyida» kartinasi

Rossiya, [Ukraina](#), [Belorussiyaning](#) ko`p shaxarlari ko`chalari, va yana shuningdek, [Berlin](#) va [Toshkentda](#) ko`chalar Glinka nomi bilan ataladi.

Xulosa

Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borar ekanmiz, bizning oldimizga San'at kollejlari musiqa tarixi darslarida XIX asr birinchi yarmi rus kompozitorlari ijodini o'rganishda o'qitishning davr talablariga javob beruvchi zamonaviy uslullarini izlash vazifasi paydo bo'ldi.

Musiqa tarixi o'qituvchisi - o'zi o'qitadigan fanning jamiyat hayotidagi o'rnini, tarixi, asosiy tushuncha, qonun - qoida va tamoyillarini yaxshi bilib olishi kerak va ta'lim - tarbiya berishning shakli va uslublarini yaxshi egallagan bo'lishi va uni amaliyotda qo'llay olishi lozim. O'z fani bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishi va talabalarga beradigan bilimlarni qiziqarli qilib bayon eta olishi kerak. Talaba-o'quvchilarning musiqa tarixi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanishda dars jarayoniga yangi informatsion - pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanning asosiy mazmunini o'quvchilar ma'ruzalar kursida o'zlashtiradi. Dars jarayonida darslik, o'quv - uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, test savollari va audio vositalaridan foydalaniladi.

Musiqa va san'at kollejlari musiqa tarixi darslarida o'quvchilar xorijiy, rus

va o'zbek musiqa madaniyati bilan tanishadilar. Talaba-o'quvchilar 2 kursda XIX asrning boshlarida rus musiqasida romantik yo'nalish paydo bo'lishi, shundan kelib chiqqan holda xalq - epik mazmunidagi asarlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Talaba-o'quvchilar XIX asrning boshlarida A.N.Verstovskiy rus operasi ijodida romantik yo'nalishning yirik vakili ekanligi, bu yillari rus poeziyasi bilan mustahkam bog'liq ravishda romans janri keng tarqaligi, xalqqa yaqin – demokratik qo'shiq lirikasining ustalari orasida Aleksandr Aleksandrovich Alyabev, Aleksandr Yegorovich Varlamov, Aleksandr Lvovich Gurilyov kabi kompozitorlar borligi haqida tuliq ma'lumot oladilar.

Ularga yana shuningdek, XIX asr rus musiqasi rivojlanishining yangi bosqichi asosan milliy mumtoz musiqa asoschisi Mixail Ivanovich Glinkaning ijodi bilan bog'liqligi, u rus musiqasini Yevropaning yetakchi musiqa an'analari bilan bir qatorda qo'yganligi va rus musiqa madaniyatining keyingi yo'nalishlarini belgilab berganligi bilan ham tanishadilar.

Glinkaning ijodi ijrochilik san'atida tanqidiy fikr rivojlantirilishiga turtki bo'ldi. Glinkaning kichik zamondoshi va ishining davomchisi A.S. Dargomijskiyning ijodida tanqidiy realizm g'oyalari o'z ifodasini topdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, rus musiqa madaniyati haqida musiqa tarixi o'qituvchisi o'quvchilarga bilim byerganda, uning ilmiy salohiyati, nazariy va amaliy bilimlari doirasi keng va puxta bo'lishi lozim.

Buning uchun o'qituvchi cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi malakalarini, fanga taalluqli nazariy bilimlarni chuqur egalaganligini talab etiladi.

Unutmaslik lozimki, musiqa tarixi o'qituvchisi nafaqat o'z ish joyida o'z kasbining bilimdoni bo'lib qolmasdan balki quyidagi pedagogik texnologiyalarni ham dars jarayonida qo'llay olishi lozim:

- ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsion texnologiyalari;
- musiqa ta'limi bo'yicha zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan ma'ruzalar;
- dialogik, muammoli, o'yin, interfaol va boshqa shakllardan foydalanilgan

amaliy mashg'ulotlar.

Darslarda dialogik shakl va uslublar, gurux va juft bo'lib ishlash va audio vositalari, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallardan foydalanish zamon talabidir. Shuning uchun, musiqa va san'at kollejlari talaba-o'quvchilariga musiqa tarixi fanlarini o'qitishda zamonaviy uslublardan keng foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Musiqa tarixi darslarida Internet va axborot texnologiyalari, musiqiy prezentatsiyalardan foydalanish talaba - o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim rol uynaydi va ularning musiqiy dunyo qarashlarni kengaytirishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., 2009 y.
2. Asafeev B. V. Kompozitori pervoy polovini XIX veka .M., 1955g
3. Vasina V.A.-Grossman. Mixail Ivanovich Glinka, M., 1982 g.
4. Glinka M.I. Chelovek. Sobitiya. Vremya. M., 1988 g.
5. Karimova D.A.. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. 2008 y.
6. Keldish Yu.V., Korjenyants T.V., Levashyov E.M., Listova N.A., Sokolova A.M. Istoriya russkoy muziki. M., 1988 g.
7. Keldish Yu.V., Korabelnikova I.Z., Levashyov E.M., Romanova V.N. Istoriya russkoy muziki. T.6. M., 1989 g.
8. Kozlova N.P "Russkaya muzikalnaya literatura".: Uchebnik dlya DMSH – M., 2012g.
9. Levasheva, A. Kandinskiy «Istoriya russkoy muziki» - 2, 3, 4 tom. M., 1987g.
10. Lesyanskaya E.B. Muzikalnaya literatura. M., 2010 g.
11. Muzikalniy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1990g.
12. Muzikalnaya ensiklopediya. M., 1978g.
13. Pekelis M.S. «A.S. Dargomijskiy i ego okrujenie» T. 1. M, 1966 g.,

T 2. M., 1973g.

14. Rozanova E.A. Istoriya russkoy muziki M., 2 tom 1986g.
15. Russkaya muzikalnaya literatura. Vip. II,III red. E.L. Frid L., 1989g,1984 g.
16. Sokolova M. Istoriya russkoy muziki M., 5 tom 1998g
17. Urmanova L.A. Musiqqa tarixi T., 2011 y.
18. Shornikova M. Muzikalnaya literatura. M., 2010 g.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.tdpu-INTRANET. Ped
- 2.www. mail ru
- 3.www. Google. ru
4. www. pedagog .ru